

**SCIENCE  
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342



Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 4. Jild 4.

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 4 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Сайдалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Файбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехruz Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдулаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашурновна - педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна - психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;  
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;  
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Махкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Qurbanov Murodjon Dehqonboy o'g'li</i>	
"KASHKULI SALIMIY" ASARIDA USMONIY HUKMDORLAR TARIXINING YORITILISHI.....	12-17
<i>Ismoilova Diyoraoy Xursandjon qizi</i>	
AMIR NASRULLOH DIPLOMATIYASI .....	18-23
<i>Tursunov Farrukh Gulomovich</i>	
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДАГИ ТОЖИКЛАРГА ХОС УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАР .....	24-28
<i>Usmonaliyev Isroiljon Ibrohimjon o'g'li</i>	
FARG'ONA VODIYSIDA "O'ZBEK" ETNONIMINING TARQALISHI .....	29-34
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i>	
YEVROOSIYO CHORVADOR QABILALARINING FARG'ONA VODIYSIGA KIRIB KELISHI.....	35-40
<i>Eanova Nilufar Pulatovna</i>	
MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKİSTONDA YENGIL SANOAT SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR .....	41-46
<i>Abdurahimova Saboqhat Erqash қизи</i>	
БУХОРО АМРЛИГИ ДАВРИДА ЧИРОҚЧИ ТУМАНИНИГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ТАРИХИ .....	47-53
<i>Toshturov Shuxrat</i>	
MUSTAQILLIKKACHA BO'LGAN DAVRDA NAVOIY VILOYATI SANOAT KORXONALARINING EKOLOGIK MUHITGA TA'SIRI .....	54-60
<i>Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich</i>	
AKADEMIK YAHYO G'ULOMOV FAOLIYATI HAQIDA QAYDLAR ("XORAZMNING SUG'ORILISH TARIXI" ASARI MISOLIDA) .....	61-65
<i>Begniyazova Gozzal Allambergenovna</i>	
QORAQALPOQ XALQ ERTAKLARINING YIG'ILISHI VA NASHR QILINISHI .....	66-70

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Sultonov Bahodir Fайзуллаевич, Turaeva Gulizahro Kaxhorovna, Norbўtaev Baxtiёр Abdurahimovich</i>	
СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ДОНЛИ ЭКИНЛАР ХОСИЛДОРЛИГИНИНГ 2024-2027 ЙИЛГАЧА БЎЛГАН ПРОГНОЗ ПАРАМЕТРЛАРИ .....	71-78
<i>Abdiganieva Zarapshan Salieva</i>	
YANGI O'ZBEKİSTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....	79-85
<i>Otaxonova Odinaxon Inomovna</i>	
QORAMOLCHILIK MAHSULOTLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA OZUQA BAZASINI YAXSHILASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....	86-94
<i>Rakhimov Oйбек Bахтиёрович</i>	
СУҒУРТА ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИДА МАРКЕТИНГ ФАОЛИЯТИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ АСОСЛАРИ .....	95-99
<i>Xushmuradov Oman Namozovich</i>	
СУВ ХЎЖАЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	100-110

*Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Karabayev Rustam Zafarovich*  
**BULUTLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA BIZNES JARAYONLARNI TASHKIL ETISH**  
 YO'LLARI ..... 111-125

*Fatmaхова Муниса Абдухамитовна*  
**ПОНЯТИЕ И ПУТИ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ КРЕДИТНЫМ ПОРТФЕЛЕМ**  
 КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ..... 126-133

*Isayev Jahongir Muzaffarovich*  
**SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TIZIMINI TA'MINLASH IQTISODIY**  
 MEXANIZMNING ASOSIY YO'NALISHI SIFATIDA ..... 134-140

#### **09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

*Tilavova Umida Qahramonovna*  
**RAQAMLI JAMIYATLAR TIZIMIDA INFORMATSION ETIKA KATEGORIYA VA**  
 TAMOYILLARINING AHAMIYATI ..... 141-147

*Yulchiyev Avazbek Maxamadjonovich*  
**IJTIMOIY TEKNOLOGIYALAR HAQIDAGI G'OYALARNING SHAKLLANISH**  
 EVOLYUTSIYASI ..... 148-154

*Каримова Гулчехра Абдукаримовна*  
**ДУНЁ ДИНЛАРИ ВА ТАЪЛИМОТЛАРДА ОТАЛИКНИ ТУШУНИШ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС**  
 ЖИҲАТЛАРИ ..... 155-163

*Turabova Sevara Kattaqulovna*  
**ISLOM FALSAFASIDA DALILLASH VA BAHS YURITISH USULI ZAMONAVIY ARGUMENTLASH**  
 NAZARIYASI TALQINIDA ..... 164-168

*Muminov Nozim Naimovich*  
**THE PHENOMENOLOGICAL APPROACH IS THE KEY TO UNDERSTANDING THE SPREAD AND**  
 TRANSFORMATION OF SUFISM IN THE WEST ..... 169-175

*Турсунов Мухиддин Болтаевич*  
**СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЁЖИ** ..... 176-180

*Mamarasulov Ulug'bek Umirzoqovich*  
**SPORT TURLARINING FALSAFIY-ESTETIK TAHLILI** ..... 181-184

#### **10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Исанова Феруза Тулқиновна*  
**ЎЗБЕК ТИЛИДА ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ СОҲАСИГА ОИД ЛЕКСИК БИРЛИКЛАР ВА УЛарнинг**  
 ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ ..... 185-191

*Петрухина Наталья Михайловна*  
**КОРАНИЧЕСКИЕ МОТИВЫ В ТВОРЧЕСТВЕ А.С.ПУШКИНА И ЕГО**  
 СОВРЕМЕННИКОВ ..... 192-197

*Исаев Оман Рисалиевич*  
**ЎЗБЕК ВА ИНГЛИЗ ТИЛЛАРИДА ТАКСИС КОНВЕРБИАЛ ВЕРБАЛИЗАЦИЯСИ** ..... 198-205

*Родина Ирина Витальевна*  
**АНТИНОМИЧЕСКАЯ ПАРА «МЕСТЬ» И «ПРОЩЕНИЕ» В ПОВЕСТИ-СКАЗКЕ Л. БОРОДИНА**  
 «ГОД ЧУДА И ПЕЧАЛИ» ..... 206-211

*Ataeva Gulchekhra Bakhtiyorovna*  
**THE ROLE OF IDIOMS IN ENHANCING BUSINESS COMMUNICATION: A STUDY ON THE USAGE**  
 OF IDIOMS IN BUSINESS LETTERS ..... 212-220

<i>Erkinova Marxobo</i>	
ASSOTSIATIV MAYDON HOSIL QILISHDA LINGVISTIK OMILLARNING O'RNI .....	221-229
<i>Gulyamova Shahzoda Baxtiyor qizi</i>	
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI MATNLARNING SINTAKTIK STRUKTURASI VA PRAGMATIK XOSLANISHI .....	230-234
<i>Batyrkhanova Madina Oybekovna</i>	
THE SOMATIC CULTURAL CODES IN THE STUDY OF ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK PHRASEOLOGISMS .....	235-244
<i>Aslonov Shahram Sherzod ugli, Saidova Marjona Abdimutal qizi</i>	
PECULIARITIES OF TRANSLATION OF POLITICAL TEXTS IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION .....	245-250
<i>Olimova Dilafruzxon Baxtiyorjon qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SUBYEKTIV BAHONING IFODALANISHI .....	251-254
<i>Bobojonov Dilshod Jumaqul o'g'li</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK GAZETA SARLAVHALARIDA PUBLISISTIK USLUB BELGILARINING NAMOYON BO'LISHI .....	255-260
<i>Абдуллаева Нулуфар Рамазоновна, Шаймарданова Мухлиса Усмановна</i>	
СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА “РАСТЕНИЕ” В СОПОСТАВЛЯЕМЫХ ЯЗЫКАХ .....	261-266
<i>Xayrulloeva Sitora Lutfulloevna</i>	
PSYCHOLOGICAL NOVELS OF US AND THE DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGYSMS .....	267-272
<i>Qudratova Muxiba Kamolovna</i>	
“LYUIS KERROLLNING ALISA MO' JIZALAR MAMLAKATIDA ASARIDAGI HAYVON OBRAZLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI” .....	273-279
<i>Убоженко Анна Станиславовна</i>	
ОСОБЕННОСТИ ТЮРКСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ .....	280-285
<i>Tukhtayeva Наргисхон Исамутдиновна</i>	
ОТРАЖЕНИЕ ДУХОВНОГО УПАДКА ОБЩЕСТВА И ЕГО ПОСЛЕДСТВИЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ .....	286-292
<i>Gulnora Xolmurodova Sattorovna, Bo'ronova Mekkamtosh Xoliqulovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK LISONIY MANZARASIDA MAQOLLARNING O'RNI .....	293-297
<i>Алибаева Лола Намазовна</i>	
ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В РАССКАЗАХ Л. ПЕТРУШЕВСКОЙ .....	298-303
<i>Eshqurbanova Aziza Bozor qizi</i>	
DIALOGIK NUTQDA SAVOLLARNING IFODALANISHI .....	304-308
<i>Norova Rahima Fayzulloevna</i>	
O'ZBEK VA INGLIZ ADABIY ERTAKCHILIGIDAGI SEHRLI VOSITALARNING QO'LLANISHIDA O'XSHASH JIHATLAR .....	309-316
<i>Egamberdiyeva Iroda Abdurahimovna</i>	
TRANSLATIONS OF HISTORICAL WORKS INTO ENGLISH .....	317-323
<i>Axmedova Adolat Ravshan qizi</i>	
GASTRONOMIYA TUSHUNCHASI HAMDA GASTRONOMIK REKLAMA MATNLARI .....	324-330

*Asqarova Madina Boymurod qizi*

KORPUS LINGVISTIKASIDA MATN ANNOTATSIYASINING LINGVISTIK MUAMMOLARI ..... 331-334

*Калниязов Есемурат Шамшетович*  
ГОСТЕВОЙ ЭТИКЕТ И СИСТЕМА ЦЕННОСТЕЙ ..... 335-342

## **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Bahodir To'raev*

HUQUQIY MADANIYAT VA HUQUQIY TARBIYANING DEMOKRATIK DAVLAT RIVOJLANISHIDAGI ROLI ..... 343-351

*Tursoatov Содик*  
РАФБАТЛАНТИРУВЧИ ҲУҚУҚИЙ СИЁСАТ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ ..... 352-357

*Хидиров Фурқат Шуқуруллаевич*  
МАҲАЛЛА ҲУҚУҚ-ТАРТИБОТ МАСКАНИ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ТАРТИБИННИГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ ..... 358-363

*Rahimbaev Уткир Файзуллаевич*  
ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ КРИТЕРИЕВ ОЦЕНКИ ИНФРАСТРУКТУРЫ И СЕРВИСА ДЛЯ ТУРИСТОВ ..... 364-372

*Tursynbaev Азизбек Халмурзаевич*  
МЕЖВЕДОМСТВЕННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КАК СПОСОБ РЕАЛИЗАЦИИ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ ..... 373-377

*Yakubov Abduraxmon Turayevich*  
TA'LIM HUQUQINING HUQUQIY SAVODXONLIKNI AMALGA OSHIRISHDAGI O'RNI ..... 378-382

*Rasulov Salimbek Baxtiyor o'gli*  
YEVROPA KENGASHINING KORRUPSIYA UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK BO'YICHA KONVENTSIYASI – KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING ZAMONAVIY XALQARO HUQUQIY ASOSLARIDAN BIRI SIFATIDA ..... 383-387

## **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Хайров Расим Золимхон угли*  
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА ..... 388-395

*To'rayev Panji To'xtayevich*  
OLIY TA'LIM MUASSASASIDA KURASHCHILARNI PSIXOLOGIK JIHATDAN TAYYORLASH ..... 396-400

*Xushnazarova Ma'mura Nodirovna*  
TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA IJTIMOIY FAOLLIKNING AHAMIYATI ..... 401-406

*Yuldasheva Sayyora Aliaskarovna*  
TA'LIM TIZIMIDA INGLIZ TILINI INTEGRATSION O'QITISH ..... 407-411

*Turdimurodov Dilmurod Yo'l doshevich*  
SPORT MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA PEDAGOGIK NAZORATNING AHAMIYATI ..... 412-418

<i>Абдувахобов Искандер, Гизатулина Ольга Ивановна</i>	
ОРГАНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СМЕШАННЫХ СРЕДАХ	
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ВУЗА .....	419-426
<i>Назарова Озода Шавкатовна</i>	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В	
ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ .....	427-432
<i>Pirnazarova Sevara Doniyor qizi</i>	
OLIY O'QUV YURLARIDA XORIJY TILNI O'QITISHDA O'YIN USULLARINI	
QO'LLASH .....	433-438
<i>Ko'ziyeva Gulnoza Maxamadaliyevna</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK SALOHIYATINI OSHIRISH	
METODIKASI .....	439-444
<i>Умирзокова Сурайё</i>	
ТАЛАБАЛАРНИНГ КИНЕТИК ИНТЕЛЛЕКТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ХОРИЖИЙ	
МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИ .....	445-451
<i>Olimova Nigora</i>	
MUVAFFAQIYATLI O'RGANISHDA SINFNI BOSHQARISH KO'NIKMALARINING	
AHAMİYATI .....	452-463
<i>Nabiyeva Firuza Odil qizi</i>	
"ELEKTROMAGNETIZM" BO'LIMINI O'QITISHDA AMALIY MASHG'ULOTLARNING AHAMİYATI	
.....	464-471
<i>Sobirova Oygul Alimovna</i>	
BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARIDA METODIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING	
MAVJUD HOLATINI TAHLILIY BAHOLASH .....	472-479
<i>Shermatov G'ulom Kaxxorovich</i>	
IMPROVING THE TECHNIQUE OF BADMINTON SPORTS TRAINING .....	480-486
<i>Shamirzayeva Zarifa Xudoyorovna</i>	
TALABALARDA KASBIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANISHIDA MIKROTA'LIM O`QITISH	
TEXNOLOGIYASINING SAMARALI JIHATLARI .....	487-492
<i>Ziyadullayeva Dilafruz Xudayberdiyevna</i>	
O'SMIRLARDA YETAKCHILIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETINSIYAVIY	
FAOLIYATNING PEDAGOGIK ASOSLARI .....	493-498
<i>Muydinov Firuzjon Farxodjonovich</i>	
TIBBIY TA'LIM TALABALARIDA MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH	
METODIKASI .....	499-505
<i>Egamberdiyeva Feruza Abdumannonovna</i>	
MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN DASTURIY TA'MINOTNI	
LOYIHALASH .....	506-510
<i>Худойбердиева Дурдона Баходир қизи</i>	
ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ В РАБОТЕ С ОДАРЕННЫМИ	
ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА .....	511-516
<i>Курбонов Дониёрбек Каҳрамонович</i>	
ОБУЧЕНИЕ ПОЭЗИИ С ПРИМЕНЕНИЕМ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО	
МЫШЛЕНИЯ .....	517-524

*Shamsiddinov G'iyos Xusniddin o'g'li, Jurayeva Feruza Baxtiyor qizi*  
IQTISODIYOT YO'NALISHI TALABALARIGA EKONOMETRIKA FANINI O'TISHNING  
INTERAKTIV USULLARI ..... 525-532

*Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович*  
ЎҚУВ МАШГУЛОТЛАРИНИНГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИХАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА  
АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ..... 533-539

**Mamarasulov Ulug'bek Umirzoqovich**

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash  
va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali direktori

### **SPORT TURLARINING FALSAFIY-ESTETIK TAHLILI**

**Annotatsiya.** Jamiyat rivojining dastlabki bosqichida o'yinli harakatlar mehnat va ayni paytda jismoniy tarbiyaning muhim samarali vositasi bo'lgan. Sport turlaridan kurash, boks, og'ir atletika, nayzabozlik, suzish, ot sporti, futbol, va boshqalar yuz yillar davomida avaylab saqlab, takomillashtirib kelinmoqda. Mazkur maqolada go'zallik va mukammallik, harakat uyg'unligi insoniyat estetik tafakkurini shakllantirish manbai ekanligi haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** falsafa, estetika, olimpiada, sport, o'yin, futbol, sinxron suzish, atlet, jismoniy mahorat, me'yo, jismoniy kamolot, g'alaba, gimnastika, kompozitsiya, san'at, kurash, musobaqa.

---

**Mamarasulov Ulugbek Umirzakovych**

Director of the Samarkand branch of the Institute of  
retraining and advanced training of specialists in  
physical education and sports

### **PHILOSOPHICAL-AESTHETIC ANALYSIS OF SPORTS**

**Abstract.** At the initial stage of the development of society, playful actions were an important and effective means of labor and physical education at the same time. Sports such as wrestling, boxing, weightlifting, javelin, swimming, equestrian sports, football, etc. have been carefully preserved and improved for hundreds of years. This article describes the information that beauty and perfection, the harmony of movement is the source of the formation of the aesthetic thinking of mankind.

**Key words:** philosophy, aesthetics, Olympics, sport, game, football, synchronized swimming, athlete, physical skill, mind, physical perfection, victory, gymnastics, composition, art, wrestling, competition.

---

**Мамарасулов Улугбек Умирзакович**

Директор Самаркандского филиала Института  
переподготовки и повышения квалификации специалистов  
по физическому воспитанию и спорту

### **ФИЛОСОФСКО-ЭСТЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СПОРТА**

**Аннотация.** На начальном этапе развития общества игровые действия были важным и эффективным средством труда и физического воспитания одновременно. Такие виды спорта, как борьба, бокс, тяжелая атлетика, метание копья, плавание, конный спорт, футбол и др., бережно сохраняются и совершенствуются на протяжении сотен лет. В данной статье изложены сведения о том, что красота и совершенство, гармония движения являются источником формирования эстетического мышления человечества.

**Ключевые слова:** философия, эстетика, Олимпиада, спорт, игра, футбол, синхронное плавание, спортсмен, физическое мастерство, разум, физическое совершенство, победа, гимнастика, композиция, искусство, борьба, соревнование.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I4Y2024N25>

Sport turlari ichida eng ommaviy va qiziqarli sport o'yinlaridan biri futbol bo'lib, o'zining ommaviyligi va ishqibozlarining ko'pligi bilan ajralib turadi. Futbol o'yinchilarning mahorati, trener tomonidan o'yinning tashkil qilinishi, kombinatsiyalarning belgilab, ko'rsatib berilishi natijasida ishqibozlarning estetik did va ehtiyoji talablariga javob beradigan sport turidir. O'yinchilarning mahorati, o'yinni tashkil etish va o'tkazilishidagi jamoaviylik, darvozaga to'pning kiritlishidagi futbolchilarning chiroyli o'yin ko'rsatishi va muhlislar tomonidan uni qo'llab-quvvatlanishi futbolga alohida qiziqish va joziba bag'ishlaydi.

Sport estetikasini anglash uchun olimpia harakati shioriga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu insonlarni yuksaklikka chorlaydigan g'oyaga aylanganligini guvohi bo'lamiz. Olimpia harakatining "Tezroq, Balandroq, Kuchliroq" shiori – lotincha "Citius, Altius, Fortius so'zlarining tarjimasi". Bunda balandlik – ulug'vorlik manbai sifatida, tezlik sportdag'i go'zallikning muhim asosi (boksda, futbolda, poygada, suzishda, va h.k.), kuch – inson tanasining harakati natijasida tezlik imkoniyatlarini namoyon etishda aks etadi. Bu muhim uchlik go'zallik in'ikosi sifatida butun insoniyatni o'z atrofida birlashtiradi.

Qudrat bu albatta, kuch va tezlik mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Tezlik esa sport turlarining birlamchi zaruriyati va uning go'zalligi asosi hisoblanadi. Musobaqalardagi tezlik va o'zini nazorat qilishning o'zaro aloqadorligi sport go'zalligini anglashdagi muhim jihat sifatida qaraladi.

Sportchi mashq paytida tana a'zolari har bir qismining imkoniyatlarini chandalab ko'radi va uni o'yin paytida ishga soladi. Futbol bu borada tana a'zolaridagi qismlardan foydalanish uchun keng imkoniyatga ega. Masalan, bosh bilan, tizza bilan, oyoqning uchi, toponi, yuzi, yoni bilan, ko'krak va yelka bilan va h.k. "Vaqtni his qilish" – sport estetikasidagi muhim ibora sifatida qaraladi. Aniqlik esa barcha sport turlariga xos bo'lgan estetik xususiyatdir. Barcha sport turlarida aniqlik hal qiluvchi natijani muhim mezoni bo'lib hisoblanadi. Xususan, o'yin va musobaqa paytidagi lahzali momentlar kishida estetik zavqni paydo qiladi. Shillerning fikricha, "Yovvoyilikdan qutulgan har bir xalq ko'rinishdan zavq olishga, bezakka va o'yinga moyil bo'ladi. O'yin, majburiyatdan kelib chiqadigan, manfaatli va bir tomonlamalikka ega faoliyatdan farqli o'laroq, erkindir. O'yinda insondagi barcha kuchlar mutanosib tarzda kelishib harakat qiladi. Inson, faqat tom ma'noda inson bo'lgandagina o'ynaydi va o'ynagan paytidagina to'liq insonga aylanadi".[1]. Sportchining qudrati muvozanat bilan bevosita bog'liq. Bu ayniqsa boksda yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki bokschi o'zining zARBINI muvozanatini boshqarish hisobidan bera olishi mumkin. Futbolchi ham raqibni aldab o'tish, fintlar ishlatishda o'z muvozanatini ushlay bilishi lozim. Bu holatlar kuch-qudrat va muvozanatni boshqarishning insonga tegishli bo'lgan botiniy omillaridir.

Sportning estetik turlaridan biri figurali uchish bo'lib, bu sport turi konkida yuguruvchi sportchining muz ustida harakat yo'nalishini o'zgartirishi, aylanishlar va sakrashlar bilan bog'liq harakatlariga asoslanadi. Figurali uchish ayollar va erkaklarning yakka holda va juft bo'lib musiqa sadolari ostida muz ustidagi raqlarini o'z ichiga oladi. Figurali uchishda qadamlar kombinatsiyasi, ko'tarish, alohida va birgalikdagi aylanishlar, sakrashlar kabi bajarilishi shart bo'lgan mashq elementlari mavjuddir.

Belgilangan qoidaga ko'ra ikki sportchining yakkama-yakka olishuviga asoslangan sport turi kurash bo'lib, kurashish san'ati ko'pgina xalqlarda rivojlantirilib, takomillashtirilib

kelingan. Kurash insonni kuchli, epchil, chidamli va irodali qilib tarbiyalash vositalaridan biri bo'lib, xalqaro maydonda sport kurashining Yunon-Rum kurashi, erkin kurash, dzyudo, sambo, o'zbek kurashi va boshqa turlari keng tarqalgan. Kurash azaldan o'zbek xalqi turmush tarzining uzviy qismi bo'lib kelgan. O'zbek kurashi nafaqat estetik go'zalligi bilan, balki muayyan axloqiy me'yorlar va tamoyillarga tayanishi bilan ham ajralib turadi. Sharq yakkakurashi turlari ichida yaponlarning karatesi, xitoylarning ushusi, koreyslarning taekvondosi o'ziga xos usul hamda jozibaga ega. Estetik sport turlaridan biri bo'lgan ot sporti ot bilan turli-tuman chiroyli mashqlarni bajarishdan iborat bo'lib, ot sportining asosiy turlari otni yo'rttirish, to'siqlardan sakrab o'tish, uch kurash, otta turli mashqlarni bajarish, poyga, otta ov qilish kabilardan iboratdir. Chavandoz ot bilan turli mashqlarni bajarishi, oldinga, orqaga, aylanma harakatlar qilishi, otni yo'rg'alatib, sakratib raqs elementlarini bajarishi mumkin. Bu esa ot sportiga o'ziga xos joziba va latofat bag'ishlaydi.

Sport gimnastikaning maqsadi – bajarilayotgan harakatlar yordamida o'z fikrlarini ifodalash. Insonning ichki tug'yonini, til bilan tariflab bo'lmaydigan, boshqalarga ayta olmaydigan lekin tomoshabinni qiynab kelayotgan his-tuyg'ularni ko'rsata olish qobiliyati. Ijrochi hissiy olamini tushuntirish uchun qo'llaniladigan mezonlar ravonlik, ijrochilik, harakatni nozikligidan foydalanadi, uning to'la hajmi — estetik mukammallikka olib keladi. Gimnastika mashqlaridagi estetik harakat ijro etish jarayonida tomoshabinlardagi ehtirosli his-tuyg'ularni uyg'otadi. Bu — usul, yo'l, ijro ritmi, ya'ni shakl, sifatlari o'ziga xoslik asosida bajariladi.

Harakat poeziyasiga murakkabliklarni yuqori saviyada, nuqsonsiz ijro etish, tana holatini o'zgarishida, uni keyingi harakatga tayyorlashda mashqlar nozikligini ta'minlash sportchiga ham, tomoshabinga ham kuchli estetik huzur bag'ishlaydi. Murakkablik — sport gimnastikasining estetik mazmunini aniqlashni asosiy omilidir. Bunda murakkab elementlar qanchalik ko'p bo'lsa, gimnastikaning ijodiy imkoniyati shunchalik yuqori bo'ladi.

Undan keyingi o'rinda kompozitsiya turadi. Bunda mashqlar mazmuni uchun belgilangan qoidalar talabi nuqtai-nazaridan ayrim elementlarni ortiqcha harakatlarsiz go'zal va bemalol bajara olish lozim. Badiiy ifodalishning murakkabligi (ijrochiga ham, tomoshabinga ham) estetik zavq bag'ishlaydi. Eng muhimi — ritm, sur'at, o'zgaruvchanlik — bular estetik gimnastikachi faoliyatining asosiy elementlari. Albatta ijroning ajoyib badiiy namoyish etish — bu go'zallikdir. San'atda bu obrazlilik deyiladi.

Kompozitsiyada o'z-o'zini ifodalash ham badiiy mezon sanaladi. Ijodiy fikrlovchi gimnast o'zining chiqishlariga san'atkor sifatida munosabatda bo'ladi. Gimnastika mashqlarini estetik baholashda ijro mahorati hamda yaxshi texnik tayyorgarlik, shuningdek barcha dasturni mukammallikka yetkazishni nazarda tutish, ayni paytda, uning estetik mazmunini idrok etish ham qulay bo'lishi lozim.

Ijro mukammalligi nozikliklari mualliflik interpretatsiyasidagi chiqishlar qiymati bu — ijoddir. Originallik — u ham ijod va estetik qadriyat. Mahorat — o'zini boshqara olishga dadillik — bular ham estetika. Zero, mahoratning negizida mukammallik yotadi. Mukammallik esa go'zallikni yaratadi. Sport estetikasi ham maromiga yetkazilgan jismoniy nozik harakatlar natijasidir. Badiiylik, go'zallik, noziklik, onglilik, aniqlik va gormoniya, sport mashqlari, elementlarini mohirlilik bilan ijro etish ham estetik baholashga tegishlidir. Gimnastika harakatining badiiy qiymatini mashqlar va ularning elementlari murakkablik darajasini tasavvur etib, ularga jo'r bo'lib baholash oson bo'ladi.

Sport turlari ichida sinxron suzish ham o'zining go'zalligi, nafosatga boyligi bilan ajralib turadi. Sinxron suzishda ayollar ishtirok etib, bir necha sportchi bir xil harakatlarni uyg'unlikda ijro etadi. Ko'pchilik tomonidan bir xil harakatning o'ta aniqlik bilan takrorlanishi ijro jarayonida o'ziga xos nafosatni vujudga keltiradi.

O'yindagi g'alaba yoki mag'lubiyat uning estetik qadriyatiga ta'sir ko'rsatmaydi, biroq g'alabaga intilish hech qachon o'z estetikligini yo'qotmay kelmoqda. O'zbek tilining izohli lug'atida G'alabaga "... maqsad yo'lida erishilgan muvaffaqiyat, yaxshi natija, yutuq" [2] deb ta'rif berilgan. G'alabaga xohish barcha texnik usullardan foydalana bilishni va yuksak mahoratni talab qiladi.

Estetika sport yutuqlaridan faxrlanishda muhim mezon bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda. Biroq, dastavval, tana a'zolarining jismonan tartibli shakllanganligi, go'zalligi — sportdagi yutuqning garovi desak ham bo'ladi. Masalan "atlet" – sportdagi go'zallikning eng yuqori ideali sifatida qaraladi. Sportchi tanasining go'zalligi va xush qadligi, harakatining muvofiqligi, ta'sirchanligi, layoqatliligi, zavqliligi va o'zini tutib turishi, uning sport jihozlari bilan hayratomuz darajada birlashib ketishi kabilar uni boshqa insonlarda hayrat hissini uyg'otadi. Atletning jismoniy kamoloti va tanasining mukammal simmetriyasi faoliyatiga go'zallik baxsh etadi. Bu o'rinda me'yor albatta birinchi darajali hisoblanadi. Me'yor – bu obyektning sifat va miqdoriy jihatdan o'zaro bog'liqligini anglatadigan, mazmun va shakl, imkoniyat va voqelik o'rtasidagi zaruriy uyg'unlikni ta'minlanishini ifodalaydigan tushuncha.[3]. Inson tanasi uning simmetriyasi bilan go'zaldir, masalan, odam yugurganda tananing shakli assimmetrik holatga keladi.

Sportchi – o'z sport turining ustasi, chiqishining strategiyasi va estetik lahzalarga ega harakatining mutlaqo funksional samarasini bo'lgan taqdirda san'atkorga aylanadi. Biroq har qanday san'at uning ijrochisidan mahoratni talab qiladi. Masalan, gimnastika, muz ustida figurali uchish, sinxron suzish va shu kabi sport turlari qisman sport va qisman san'atdir. Chunki unda jismoniy mahorat bilan estetik ifoda simbioz tarzda ijro etiladi. Bu jarayonda sportchining tanasi asosiy ifoda vositasidir. Bunda ijodning ba'zi individual erkiga yo'l qo'yiladi. Sportchi katta sport qobiliyatiga va ijodiy ijro erkinligi hamda o'z-o'zini ifodalashga ega bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak sport go'zalligida sportchining ichki tug'yoni, uni yaratish imkoniyatlari mujassam bo'ladi. Sportchi harakatlarida nafosatning ohang, gormoniya, harakatlarning ravonligi, noziklik, muvozanatning mukammalligi, qaddi-qomat, turli trayektoriya bo'ylab harakat, kuchni oqilonalik asosida tejash, mukammallikning oliy darajasi — uslub, ijod kabi belgilari yorqin ajralib turadi. Bu esa insonlarni sportga ohangrabodek jalb qiladi. Uni kuzatish asnosida shug'ullanishga chorlaydi. Shu sababdan bugungi kunda sportning ma'naviy-estetik xususiyatlari bo'yicha tadqiqot olib borish dolzarb hisoblanadi.

### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Шиллер Ф. Собрание сочинений. В 7 т. Т. 6. М., ГИХЛ, 1957. С. 265.
2. Мадвалиев А таҳрири остида. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Т.; 2013. Б- 430.
3. Фалсафа қомусий луғат. "Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти". Т.; 2004. Б- 270.
4. <https://lex.uz/uz/docs/-6035637>

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***Nº 4 (4) – 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масьулияти чекланган жамияти**

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).